

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**KARIMOVA ZULFIYA ODILJANOVNA**

**OLAMNING RUS LISONIY MANZARASIDA “VATAN” KONSEPTINING  
LINGVOMADANIY VA DISKURSIV JIHLTLARI**

10.00.04 –Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Namangan-2025**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on philological  
sciences**

**Karimova Zulfiya Odiljanovna**

Olamning rus lisoniy manzarasida Vatan konseptining lingvomadaniy va diskursiv jihatlarini.....5

**Каримова Зульфия Одилжановна**

Лингвокультурологический и дискурсивный аспекты концепта «Родина» в русской языковой картине мира .....27

**Karimova Zulfiya Odiljanovna**

Linguocultural and diskursiv aspects of the concept "Homeland" in the Russian language picture of the world.....51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works.....53

**IS'HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/05.05.2023.Fil.163.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**KARIMOVA ZULFIYA ODILJANOVNA**

**OLAMNING RUS LISONIY MANZARASIDA “VATAN” KONSEPTINING  
LINGVOMADANIY VA DISKURSIV JIHLTLARI**

10.00.04 –Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**

**AVTOREFERATI**

**Namangan-2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Fil5263 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.namsifl.uz](http://www.namsifl.uz)) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Nurmanov Abdinazar Tashbayevich**  
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xoshimova Dildora Madaminovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Zinin Yevgeniy Olegovich**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi PhD 03/05.05.2023 Fil.163.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "16" 04 kuni soat 9<sup>30</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100 a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz)).

Dissertatsiya bilan Is'hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (59 raqam bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, Orzu MFY, Yoshlik ko'chasi 100 a-uy. Tel.: +998 (69) 442-11-67, e-mail: [info@namsifl.uz](mailto:info@namsifl.uz) / [namchi-1@exat.uz](mailto:namchi-1@exat.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "8" 04 kuni tarqatildi.  
(2025-yil "16" 04 kuni) 45 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.T.Dosbayeva**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**I.I.Umrzaqov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**S.A.Misirov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon ta'limi jarayonida til va madaniyatning o'zaro ta'siri dinamik jihatlari, kontseptlarning kontseptual mazmuni, semantik doirasi va semantik tuzilishining lingvokulturologik tavsifi, etnik guruhlar dunyoqarashi milliy o'ziga xos xususiyatlarining lisoniy timsolini o'rganish, tabiiy tilda madaniy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni tushuntirish va qo'llash qonuniyatlarini bilish, xorijiy tillarni o'rganish, tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga qiziqishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xorijiy til ta'lim oluvchilarda lingvomadaniy kompetentsiyani shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu muammoni muvaffaqiyatli va samarali hal qilishning eng muhim mexanizmlaridan biri chet tili darslarida xalq mentaliteti va milliy xarakteri, qadriyatlar tizimi va madaniy munosabatlari asoslarini jamlagan tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga oid muhim matnlardan foydalanish hisoblanadi.

Dunyoning yetakchi universitetlari va tadqiqot markazlarida xorijiy tillar tizimida (shu jumladan rus tili) olamni turkumlashtirish va kontseptuallashtirish shakllari, talabalarda lingvomadaniy va lingvo-mamlakatshunoslik kompetensiyalarni shakllantirishda kontseptual va kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning lisoniy imkoniyatlari, chet tilining semantik makonini ilmiy-didaktik rivojlantirishda qiyosiy konseptologiya, kognitiv va kontrastiv lingvistika usullari, rus tilini chet tili sifatida o'zlashtirishda psixologik, ijtimoiy-madaniy va lingvodidaktik qiyinchiliklarni aniqlash va bartaraf etish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Adib ijodiy faoliyatida milliy mentalitetni tadbiq etish muammolari, sinergetik tarjima masalalari, asar mazmunini shakllantirish jarayonida kognitiv tuzilmalarning rolini aniqlash, muallifning individual kontseptsiya sohasi va uning milliy konseptosfera bilan aloqasini o'rnatishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilgan<sup>1</sup>.

O'zbekistonda so'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish, xorijiy tillarni xalqaro standartlar darajasida biladigan mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillarini o'qitish mazmuni faol yangilanmoqda. Rossiya Federatsiyasi universitetlarining etakchi mutaxassislari bilan hamkorlikda ta'lim o'zbek va boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda rus tilini chet tili sifatida o'qitishning yangi konsepsiyasi ishlab chiqildi, xorijiy tillarni, rus tilini chet tili sifatida o'qitish sohasida jahon tendentsiyalari, yondashuvlari va usullarini joriy etuvchi zamonaviy rus tili darsliklari yaratildi. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabatlar muammosi bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Bundan tashqari, so'nggi paytlarda bu masala ta'limni xalqarolashtirishning zamonaviy sharoitida ayniqsa mashhurlikka ega bo'lmoqda, chunki bugungi kunda har qachongidan ham ko'proq "til etnik ma'lumotlarni o'zlashtirish, qabul qilish va saqlash vositasi sifatida ishlaydi, bu

---

<sup>1</sup>Аманнулаева К.М. Концептосфера художественного произведения и средства репрезентации базовых концептов в переводе (на материале произведений Харуки Мураками). Дисс. доктора философии (PhD) по филологическим наукам. - Самарканд, 2022. - С. 4.

bilan uning kumulyativ funksiyasi ta'minlanadi"<sup>2</sup>. O'zbekistonda barcha sohalarda, jumladan, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar davrida ilm-fanga ham katta ahamiyat berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek: "...barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu islohotlarning muvaffaqiyati, Olamning zamonaviy rivojlangan davlatlari qatoridan munosib o'rin egallashimiz, avvalambor, mamlakatimizda ilm-fan, ta'lim va tarbiya rivoji, bu sohalardagi raqobatbardoshligimiz bilan bog'liq"<sup>3</sup>.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi zamonaviy antropotsentrik yo'naltirilgan tilshunoslik fanida lingvokognitiv va lingvokulturologik yo'nalishlar kontekstida Vatan konseptining konseptual mazmuni va qadriyatga doir salohiyatini har tomonlama o'rganishning ilmiy va umumiy madaniy ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi "Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-239-son, 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son, 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekistonda chet tillarni o'rganishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini va ularni amalga oshirish yo'llarini shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Til hodisalari tahliliga konseptual yondashuvning turli jihatlari, shuningdek, qiyosiy tadqiqotlarda, matn va badiiy matn kontseptosferasi Sh.D.Safarov, A.E.Ashurova, A.Mamatov, G.X.Boqieva, J.Yoqubov, D.Teshabeva, A.Yo'ldoshev, K.Amanullaeva, Z.Pardaev, G.Q.Qdirboyeva, Sh.Jabborov, T.Mardiyev<sup>4</sup> kabi mamlakatimiz olimlari tomonidan o'rganilgan.

---

<sup>2</sup> Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Язык и культура. Три лингвострановедческие концепции: лексического фона, речеповеденческих тактик и сапиентемы / Под редакцией и с послесловием академика Ю. С. Степанова. — М.: «Индрик», 2005. — 1040 с.

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston ustoz va murabbiylariga" tabrigi <http://prezident.uz/ru/lists/view/1088> (Murojaat sanasi: 30.11.2023 y.)

<sup>4</sup> Ш.С.Сафаров. КОГНИТИВ ТИЛШУНОСЛИК. –Жиззах.: Санзор нашриёти, 2006. -Б. 34; Д.Ашурова. Стилистика текста в парадигме когнитивной лингвистике// Филология масалалари. – 2003. -№1. – С. 41.; Ёқубов Ж. Тилшуносликда концепт ва категория терминларига доир баъзи мулоҳазалар. –Хорижий адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Самарқанд.

Olamning lisoniy kontseptuallashuvi nazariyasi qoidalari va olamning lisoniy manzarasi Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlari E.S.Kubryakova, N.N.Boldirev, V.Z.Demyankov va boshqalarning ishlarida asoslab berilgan<sup>5</sup>; til tahliliga lingvokulturologik yondashuv tamoyillari V.N.Teliya, V.V.Vorobyov, V.V.Krasnix, V.A.Maslova, V.I.Karasik va boshqalarning ishlarida bayon etilgan<sup>6</sup>; uslubiy asoslar va kontseptual tahlilning o'ziga xos usullari A.P.Babushkina, I.A.Sternina, Z.D.Popova, S.G.Vorkacheva va boshqalarning<sup>7</sup> ishlanmalarida keltirilgan.

Xorijiy tadqiqotchilar ichida L.V.Barsalou, Jakendof, R.V.Langacker, E.Rosh<sup>8</sup> kabi lingvistlarning ishlarini ko'rsatib o'tish zarur. Chet el olimlari<sup>9</sup> A.Petrikova,

---

2020.– Б. 41-46.; Маматов А.Э. Замонавий лингвистика. Toshkent –“Noshir”. 2019. -Б. 160.; Тешабоева Д.М. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи: Филол. фан. док. ... дисс. - Тошкент, 2012. - Б. 38.; А.Г.Юлдашев Тил бирликларини категориялаштиришда когнитив ёндашув// Ўзбекистонда хорижий тиллар. -2020. -№4 (33). - Б.105-114.; Пардаев, З. Лисоний концепт тушунчаси ва унинг структурал муаммолари ҳақида. Вестник Каракалпакского государственного университета имени Бердаха, 7(1-2), 2010. -С. 89-91.; Г.Қ.Қдырбаева, “МАН”–“АДАМ” концептосфераси бирликларининг лингвомаданият ва лингвокогнитив хусусиятлари. (Инглиз ва Қорақалпоқ тили мисолида) PhD дис. Автореф. Самарқанд 2017. - б. 17.; Ш.Жабборов. “Вақт” концептосферасининг когнитив-метафорик, лингвофалсафий ва лингвомаданият таҳлили (Инглиз ва ўзбек тиллари мисолида) PhD дис. Автореф. Термиз 2022. – б. 14; Т.Мардиев. Инглиз ва ўзбек тилларида инсон туйғулари ифодаланишининг концептуал таҳлили PhD дис. Автореф. Самарқанд 2019. - б. 19

<sup>5</sup> Кубрякова Е.С., Демянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. Краткий словарь когнитивных терминов. Составители: – М., 1997. – 152 с. – С. 52.; Болдырев Н.Н. Когнитивная семантика. Курс лекций по английской филологии. – Тамбов: Изд-во ТГУ, 2000. – 123 с.; Демьянков В.З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. – 1994. - № 4. – С. 17-33;

<sup>6</sup> Телия В.Н. О методологических основаниях лингвокультурологии // Логика, методология, философия науки. Тезисы докладов. – М.: – Обнинск, 1995. – С. 91.; Воробьев В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания. Тверский Гос. университет. 2001. – С. 103.; Красных В.В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология: Курс лекций. – М.: ИТДГК “Гнозис”, 2002. - 284 с.; Маслова В.А. Концептуализация и категоризация в языке с позиции лингвокультурологии. Витебский государственный университет им. Петра Машерова. 2018. 40-47.; Карасик В.И. Языковой круг: личность, концепт и дискурс. – М.: Гнозис, 2004. – 390 с.

<sup>7</sup> Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж: Изд-во ВГУ, 1996. – 104 с.; Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие “концепт” в лингвистических исследованиях. Воронеж: Изд-во Воронеж, ун-та, 2000. – 30 с.; Воркачев С.Г. Концепт счастья в русском языковом сознании: опыт лингвокультурологического анализа: Монография. Краснодар: изд-во Кубань. гос. техн. ун-та, 2002. – 142 с.

<sup>8</sup> Barsalou L. W. Frames, concepts, and conceptual fields// Frames, fields, and contrasts. -Hillsdale: 1992. -P.21-74. Jackendoff R. What is a concept? //Frames, fields and contrasts. New Essays in semantics and lexical organization. - Hillsdale: 1992. -P. 191-209 Jakobson.R.O. Language in Literature. - London: Harvard University Press, 1987. -548 p. Langacker R.W. Concept, Image, and Symbol: the cognitive basis of grammar. –Berlin, New York: Mouton de Gruyter, 1991. -395 p. Rosh.E. Cognitive Representation of Semantics Categories//Journal of Experimental Psychology. 1975. -Vol.104. – P. 192-233.

<sup>9</sup> Петрикова А. Концепт «родная земля» в языковом сознании русскоговорящих билингвов в Словакии [Текст] // А. Петрикова // Культурные концепты в языке и тексте: Сборник научных трудов. - Вып. 2. - Белгород: БелГУ, 2007. - С. 95-102. Чжао, Айго. От лингвострановедения к лингвокультурологии / Чжао Айго // Преподавание русского языка в Китае. -2007. -№ 3. -С. 28-32. Питерс, Берт. К лингвокультурологии и культурологии. Вестник НГУ. Серия: Лингвистика и межкультурность. Коммуникация, 2019, вып. 17, нет. 4, с. 6–11. DOI 10.25205/1818-7935-2019-17-4-6-1. Киквадзе, М. Лингвокультурологические аспекты изучения флоронимики Самхрули (Южной) фразовые единицы. В: О. Суте, С. Межри и И. Сфар (ред.). Фразеология: теория и приложения. Париж, Чемпион, 2018, с. 183–193. Питерс Б. Прикладная этнолингвистика – это лингвокультурология, но является ли она культурная лингвистика? Международный журнал языка и культуры, 2016, нет 3 (2), с. 137–160. Дои 10.1075/ijolc.3.2.01пе. В переводе на русский язык Питерс (2017 (4) (PDF) О лингвокультурологии и лингво-культурологии. Available from: [https://www.researchgate.net/publication/337738371\\_On\\_linguoculturology\\_and\\_cultural\\_linguistics](https://www.researchgate.net/publication/337738371_On_linguoculturology_and_cultural_linguistics) [accessed Jan 25 2024]. Hymes D. The Ethnography of Speaking // Blount B. G.(ed.) Language, culture and society. - Prospect Heights: Waveland Press, Inc., 1995. -P. 248–282. Palmer G. B. Toward a theory of cultural linguistics. - Austin: University of Texas Press, 1996. - 348 p. SapirE. The psychology of culture: a course of lectures /Ed. Irvine J. T. - Berlin: Mouton de Gruyter, 1993. -

Chjao Ayguo, Bert Peters, M.Kikvadze, D.Xayms, G.Palmer va boshqalarning ilmiy ishlarida til va madaniyatning o‘zaro ta’sirining dinamik jihatlariga qiziqish «nutq etnografiyasi» va keyinchalik «muloqot etnografiyasi» deb nomlangan yondashuvda mujassamlangan. D.Xayms birinchilardan bo‘lib til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni qayta shakllantirib, nutq etnografiyasi odatda grammatika tadqiqotchilari (ya’ni tilning tuzilishi) tomonidan o‘rganiladigan jihatlar bilan etnografiya (madaniy xususiyatlar) o‘rganadigan jihatlar orasidagi bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilganligini ta’kidlaydi. Boshqa so‘z bilan aytganda, ushbu yondashuv tili o‘rganilayotgan mamlakat odamlarining faoliyatida maqbul va samarali ishtirok etish uchun ularning verbal hatti-harakatlari haqida bilishi kerak bo‘lgan narsalarga qaratilgan. Nutq etnografiyasi sohasidagi tadqiqotchining vazifasi – til sohibining tilning tarkibiy elementlari va uning ijtimoiy-madaniy kontekstda qo‘llanilishini belgilovchi tamoyillarga nisbatan nuqtai nazarini o‘rnatish. G.Palmer bunday yondashuvni kulturologik (madaniy) tilshunoslik deb atashni taklif qildi.

Vatan mavzusi bir necha asrlar davomida ilmiy-madaniy makonda mavjud bo‘lib, yozuvchilar, din va jamoat arboblari, olimlar va publitsistlar ijodida namoyon bo‘ladi. “Vatan” fenomenini konseptuallashtirish muammosi fanlararo muammolar qatoriga kiradi va turli bilim sohalarini qamrab oladi. Ushbu tadqiqotning farqi shundaki, lingvomadaniy kognitiv-yo‘naltirilgan yondashuvdan foydalangan holda yangi obyekt – “VATAN” konseptini semantik to‘ldirish va lingvistik obyektivlashtirish ilmiy muomalaga kiritildi, shuningdek, tahlil uchun yangi material – ilgari amalga oshirilmagan rus tili milliy korpusidan foydalanish kontekstlaridan foydalanildi. Shuningdek, ushbu dissertatsion tadqiqotda ilk bor tavsiflangan VATAN konsepti reprezentantlari bo‘lgan so‘zlarning nutqiy voqelanishidagi leksik va so‘z yasash innovatsiyalari zamonaviy tilshunoslikda hali o‘rganilmagan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Ushbu dissertatsion tadqiqot Jizzax davlat pedagogika universitetining “Til hodisalarini pragmatik-kognitiv talqin qilishda tarjima muammolari” ilmiy yo‘nalishi doirasidagi ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** olamning rus lisoniy manzarasida Vatan kontseptining lingvomadaniy va diskursiv jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

zamonaviy gumanitar tadqiqotlarda kontseptlarni tahlil qilishning nazariy asoslarini, kontseptual tahlilning mavjud tamoyillari, usullari va uslublarini tavsiflash, shu orqali ishda qabul qilingan Vatan kontseptining kompleks tavsifi konsepsiyasini va uni bosqichma-bosqich amalga oshirish tartibini asoslash;

rus madaniyatidagi vatanparvarlik kategoriyasining ekstralingvistik mazmuni va tushunchaviy doirasini aniqlash hamda leksikografik manbalar asosida Vatan kontseptining kontseptual mazmuni va semantik hajmini ochib berish;

---

266 p. Saville-Troike M. The ethnography of communication // McKay S. L., Hornberger N. H. (eds.) Sociolinguistics and language teaching. — New York: Cambridge University Press, 1996. -P. 351–382.

Vatan konseptining frazeologik va paremiologik ifodalanish xususiyatlarini tavsiflash, uning lisoniy ob'yektivlashuvida Vatan konseptini ifodalovchi so'zlarning so'z yasaliş, paradigmatic va sintagmatic bog'lanishlari va munosabatlarini aniqlash va mazmunli izohlash;

Vatan konseptining kognitiv xususiyatlarini tavsiflash va aniqlashtirish uchun rus tilida so'zlashuvchilarning nutq amaliyotida Vatan tushunchasini o'zida mujassam etgan so'zlarning nutqiy faollashuv reflekslarini tahlil qilish;

Vatan konseptini ifodalovchi so'zlarning leksik va so'z yasalişidagi yangi hodisalarni o'rganish, institutsional diskurs turlarini farqlashda Vatan konseptining rolini ochib berish.

**Tadqiqot ob'ekti sifatida** milliy madaniyatning barcha kontseptlaridan iborat bo'lgan, iyerarxik tartibda tuzilgan va sistemali ravishda tashkil etilgan jamlanma sifatidagi Rus milliy kontseptosferasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** — "Vatan" kontseptining semantik mazmuni va semantik hajmi, uning lisoniy va diskursiv ifoda etish shakllari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Ishda madaniy tushunchalarni kompleks tahlil qilish metodologiyasi, an'anaviy lingvistik tahlil metodi, komponentli tahlil metodi, so'z yasovchi tahlilning struktur-semantik usuli, kontekstual tahlil usuli, nutq tahlili usuli qo'llanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

lisoniy kontseptlarni tahlil qilishning nazariy asoslari, kontseptual tahlil tamoyillari (kontekstual tahlil, qiyosiy tahlil, funksional tahlil, definitson tahlil, kognitiv tahlil), usullari (leksikografik, komponentli, distributiv, paremiologik, leksiko-semantik) xususiyatlarini tavsiflash asosida Vatan konseptini kompleks tavsiflash kontseptsiyasi va uni bosqichma-bosqich tahlil qilish tartibi asoslab berilgan;

rus madaniyatidagi vatanparvarlik kategoriyasining ekstralingvistik mazmuni va tushunchaviy ko'lami Vatan konseptining kontseptual mazmuni va semantik hajmini leksikografik va ensiklopedik manbalarni (leksikografik va ensiklopedik lug'atlar, frazeologik va paremiologik fond) kompleks sinxron-diaxron tavsiflash asosida aniqlashtirilgan;

Vatan konseptining frazeologik va paremiologik ifodalanish xususiyatlari kontseptning lisoniy ob'yektivlashuvida Vatan konsepti vakillarining so'z yasaliş, paradigmatic va sintagmatic bog'lanishlarini mazmunli talqin qilish asosida aniqlangan;

Vatan konseptining kognitiv belgilari rus tilida so'zlashuvchilarning nutq amaliyotida Vatan konseptini o'zida mujassam etgan so'zlarning diskurs faollashuv reflekslarini tahlil qilish asosida aniqlashtirilgan hamda institutsional nutq turlarini (siyosiy, diplomatik, yuridik, harbiy, pedagogik) farqlashda VATAN konseptining hal qiluvchi roli isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

rus madaniyatidagi vatanparvarlik kategoriyasining ekstralingvistik mazmuni va kontseptual doirasi aniqlangan;

Vatan konseptining konseptual mazmuni va semantik doirasi leksikografik manbalarning ma'lumotlariga ko'ra tavsiflangan;

leksika va so'z yasashida Vatan konseptini ifodalovchi so'zlarning nutqiy amalga oshishida yangi hodisalar tadqiq etilgan;

tadqiqot natijalaridan rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda foydalanish bo'yicha o'quv-uslubiy materiallar ishlab chiqilgan;

60111700 – O'zga tilli guruhlarda rus tili bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun «Rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi» nomli darslik ishlab chiqilgan;

60111500 – Ona tili va adabiyoti yo'nalishi (rus tili va adabiyoti) bo'yicha bakalavriat talabalari uchun “Rus adabiyoti bo'yicha praktikumi” o'quv qo'llanmasi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ilmiy asos, ish natijalari va tanlangan tahlil usullari dissertatsiyaning nazariy qoidalariga muvofiqligi bilan belgilanadi; respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlaridagi maqolalar, OAK tomonidan tavsiya etilgan maxsus jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Ushbu tadqiqotning nazariy ahamiyati Vatan konseptining kontseptual mazmuni va lisoniy ob'ektivlashuvini kompleks lingvomadaniy tavsiflashning asosiy tamoyillari va o'ziga xos metodologiyasini aniqlashtirishdan va uni yangi tadqiqot materialida – kelib chiqishi begona, ayni paytda rus madaniyatida yuqori ijtimoiy ahamiyatga ega kontsept misolida sinab ko'rishdan iborat.

Ushbu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, uning asosiy natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida leksikologiya va frazeologiya, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va kontseptual tahlil bo'yicha kurslarda, rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda, shuningdek, konseptlar lug'atlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Olamning rus lisoniy manzarasida va rus tilida so'zlashuvchilarning nutq amaliyotida Vatan kontseptining kontseptual mazmuni va lisoniy ob'ektivlashuvini har tomonlama lingvomadaniy sinxron-diaxronik tavsiflash bo'yicha tadqiqot natijalariga ko'ra:

zamonaviy gumanitar bilimlarda kontseptlarni tahlil qilishning nazariy asoslari, kontseptual tahlil tamoyillari, usullari va usullari xususiyatlariga asoslangan Vatan kontseptining har tomonlama tavsifi va uni bosqichma-bosqich tahlil qilish tartibining asoslangan kontseptsiyasi O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Madaniy-ma'rifiy va badiiy radiodasturlar” tahririyati tomonidan tayyorlangan “Ta'lim va taraqqiyot”, “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” radiodasturlarida foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston” davlat teleradiokanalining 2024-yil 19-fevraldagi 4-36-262-sonli ma'lumotnomasi). Natijada radiotinglovchilar Olamning rus tili manzarasida va rus tilida so'zlashuvchilarning nutq amaliyotida Vatan

kontseptning kontseptual mazmuni va lisoniy ob'ektivlashuvining har tomonlama lingvomadaniy-mantiqiy sinxron-diaxronik tavsifini amalga oshirish, shuningdek, rus tilini xorijiy til sifatida o'qitishda olingan ma'lumotlardan foydalanish yo'llarini belgilash va o'quv-uslubiy materiallar, yaratilgan tavsiyalar haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar;

leksikografik manbalarga ko'ra Vatan kontseptining kontseptual mazmuni va semantik ko'lamini tavsiflash asosida rus madaniyatida vatanparvarlik kategoriyasining ekstralingvistik mazmuni va kontseptual ko'lamini aniqlash bo'yicha takliflar va tavsiyalar Jizzax politexnika institutining "Talabalarda assertiv xulq-atvorni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" amaliy loyihasi doirasida foydalanilgan (Jizzax politexnika institutining 2023-yil 30-sentabrdagi 03-2294-2292-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarning talabchan xulq-atvorini shakllantirish omillarini oydinlashtirish imkoniyati yaratilgan;

Vatan kontseptining frazeologik va paremiologik ifodalanish xususiyatlarini kontseptning lisoniy ob'ektivlashuvida Vatan kontsepti vakillarining so'z yasali, paradigmatic va sintagmatic bog'lanishlarini mazmunli talqin qilish asosida aniqlash bo'yicha takliflardan 60111500 – Ona tili va adabiyoti (rus tili va adabiyoti) yo'nalishi bo'yicha bakalavriat talabari uchun mo'ljallangan "Rus adabiyoti bo'yicha amaliy mashg'ulot" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i). Natijada frazeologik materiallarni tahlil qilish orqali Vatan kontseptining avval kashf etilgan kognitiv belgilarini oydinlashtirish va yangi kognitiv belgilarni aniqlashga muvaffaq bo'lingan;

rus tilida so'zlashuvchilarning nutq amaliyotida Vatan kontseptini o'zida mujassam etgan so'zlarni nutqiy aktuallashtirish reflekslarini tahlil qilish asosida Vatan kontseptining tasdiqlangan va aniqlangan kognitiv xususiyatlari 60111700 - O'zga tilli guruhlarda rus tili bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabari uchun mo'ljallangan «Rus tilini xorijiy til sifatida o'qitish metodikasi» nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Guliston davlat universiteti rektorining 2024 yil 30 martda 49-sonli buyrug'i). Vatan kontseptiga oid so'zlarning nutqiy aktuallashtirish reflekslarini va uni o'zida mujassam etgan so'zlarning nutqni amalga oshirish xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish natijasida rus tilini chet tili sifatida o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy ishlanmalar yaratilgan bo'lib, ularda talabalar o'rtasida mamlakatshunoslik va lingvistik-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish maqsadida Vatan kontseptidan foydalanish bo'yicha darslar va mashqlar tizimini ishlab chiqishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 14 ta, jumladan, 9 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy maqola chop etilgan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining (PhD) asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shu jumladan 4 ta maqola xorijiy jurnallarda.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 181 sahifani tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning **kirish** qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy kontseptologiyaning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning asosiy nazariy muammolarini, uning asosiy atama va tushunchalarini yoritib berilgan, va shuningdek, qabul qilingan tadqiqot konsepsiyasi asoslangan. Ilmiy tushunchalar, Olamning lingvistik konseptualizatsiyasi va Olamning lingvistik tasviri, tushuncha va kontseptsiya sohasi ko'rib chiqilgan, buning asosida tadqiqot konsepsiyasining mantiqiy asoslari keltirilgan.

Kelgusi tadqiqotlar uchun nazariy asos sifatida tilshunoslikda 20-asrning 90-yillarida antropotsentrik paradigma doirasida vujudga kelgan lingvomadaniyatshunoslik kabi yangi fanlararo yo'nalish tavsiflangan. Tilda madaniy ob'ektlarni ifodalash uslub va vositalarini, muayyan xalq mentalitetini tilda ifodalashning o'ziga xos xususiyatlarini, semantikada namoyon bo'lish qoliplarini o'rganishdan iborat bo'lgan lingvokulturologiyaning maqsad va vazifalari, ob'ekti, predmeti va muammolari, madaniyatning qiymat-semantik kategoriyalarining lingvistik birliklari yoritilgan.

Tadqiqot muammosiga oid o'rganilgan ilmiy va o'quv adabiyotlarini umumlashtirish asosida mazkur ishning tadqiqot vositalarini shakllantirish uchun zarur bo'lgan asosiy ilmiy tushunchalarning ishchi ta'riflari shakllantirilgan.

Shunday qilib, dunyoni lingvistik kontseptuallashtirish deganda milliy til mexanizmlaridan foydalanish orqali tashqi dunyoni idrok etish tajribasida voqelikning ongsiz aqliy va qadriyat rivojlanishi jarayoni tushuniladi.

Olamning lingvistik tasviri voqelikni kontseptuallashtirish mahsuli sifatida chiqadi – ma'lum bir milliy tilda so'zlashuvchilar uchun o'zgarmas, til tomonidan qayd etilgan va uzatiladigan va ma'lum bir madaniyatga xos bo'lgan g'oyalarni o'zida mujassam etgan dunyo qiyofasi.

Konseptni olamning lisoniy manzarasining birligi sifatida harakat qiladigan va ko'p darajali lingvistik va nutqiy vositalar to'plamida mujassamlangan, ierarxik tarzda tashkil etilgan lingvistik-aqliy-madaniy hodisa sifatida talqin qilish mumkin. Konsept etnos dunyosining lisoniy tasvirining birligi sifatida lingvomadaniy yondashuv prizmasi orqali ko'rib chiqilib, madaniy tushuncha vazifasini bajaradi.

Milliy kontsepsiya sohasi etnos dunyosining lingvistik tasvirida milliy va madaniy jihatdan aniqlangan ma'nolarni o'zida mujassam etgan tushunchalarning tizimli tartiblangan tizimi sifatida belgilanadi.

Kontseptual tahlilning mavjud yondashuvlari, tamoyillari va usullarining umumlashtirilgan tavsifi tadqiqotning bevosita metodologik asosini aniqlash imkonini berdi, u shu tariqa, Volgograd, Voronej, Nijniy Novgorod va Tambov kontseptual maktablarida qabul qilingan kontseptual tahlilning integrativ usullariga asoslanadi. Bu esa, o'z navbatida, ishda olib borilgan tadqiqot kontsepsiyasining mantiqiy asosini tashkil etadi.

Qabul qilingan tadqiqot konsepsiyasidagi asosiy atamalar va ilmiy tushunchalar orasida **“konseptning ma'noviy mazmuni”** atamasini alohida ta'kidlash lozim, bu odatda uning **kontseptual mohiyatini** ifodalaydi. Ma'noviy mazmun **“kognitiv belgilar”** (yoki **“kontseptual belgilar”**) ni aniqlash va keyinchalik qayd etish orqali modellashtirilib, shakllantiriladi.

Ishda **kognitiv belgi** tushunchasi ostida, Voronej kontseptual tahlil maktabi olimlariga ergashib, biz til egalarining alohida, boshqalardan ajratib idrok etadigan va qayta ishlab chiqaradigan har qanday ma'noni tushunamiz. Bu ma'no uning tizimli-lingvistik maqomidan (alohida lug'aviy ma'no, individual-mualliflik ma'nosi, frazeologik ma'no yoki uning tarkibiy qismlarining ma'nosi, konnotatsiya, assotsiatsiya va boshqalar) qat'i nazar, mustaqil birlik sifatida qabul qilinadi [Popova, Sternin 2001].

Konseptning umumiy ma'no tarkibini tashkil etgan barcha til va nutq birliklarining semantikasini tahlil qilish orqali aniqlangan kognitiv belgilar soni biz tomonidan konseptning **semantik hajmi** sifatida talqin etiladi. Odatda grafik tarzda shakllantiriladigan alohida kognitiv belgilar o'rtasidagi ierarxik ma'noviy yoki assotsiativ aloqalar va munosabatlar **konseptning semantik tuzilmasini** hosil qiladi.

Konseptning **lisoniy** yoki **nutqiy obyektivlashuvi (eksplikatsiyasi, reprezentatsiyasi)** deganda o'z semantikasida konseptning turli kognitiv belgilarini mujassamlashtirgan til birliklari, shu jumladan ularning nutqiy voqelanishi tushuniladi. Lisoniy obyektivlashtirish uchun bu kontseptual mazmunning verbal jihatini tashkil etuvchi so'zlarning o'ziga xos tizimli-lisoniy, lug'aviy ma'nolari, ulardan yasalgan so'zlarning ma'nolari, sinonimlar, antonimlar, giponimlar, giperonimlarning ma'nolari, frazeologizmlarning ma'nolari va maqollar mazmunining tarkibiy qismlari bo'lishi mumkin. Nutqiy obyektivlashtirish uchun esa bu lug'atlarda qayd etilmagan yangi, shu jumladan ko'rsatilgan birliklarning qo'llanilish kontekstlarida namoyon bo'ladigan noan'anaviy ma'nolari, shuningdek ular asosida yuzaga kelgan neologizmlarning ma'nolari bo'lishi mumkin.

**Tadqiqot jarayoni va uning bosqichlari.** Tahlilning tayyorgarlik (nol) bosqichi ensiklopedik va lug'at manbalaridan, shuningdek, rus tili milliy korpusi ma'lumotlaridan empirik materiallarni saralashdan iborat.

Tadqiqotning *birinchi bosqichi* rus madaniyatidagi VATAN tushunchasi haqidagi tasavvurlarning til tashqarisidagi mazmunini o'rganishga bag'ishlangan. Bu tahlil madaniyatning nufuzli manbalari (badiiy, diniy, publitsistik, ilmiy, xalq

ogʻzaki ijodi) materiallari hamda ensiklopedik lugʻatlar maʼlumotlari asosida olib boriladi.

*Ikkinchi bosqich* VATAN tushunchasining asl til mazmunini sinxron-diaxron tahlil qilishdan iborat boʻlib, bu asosiy rus etimologik, tarixiy va izohli lugʻatlarida ushbu tushunchani ifodalovchi soʻzlarning talqinlarini sharhlash orqali olingan maʼlumotlarni umumlashtirish yoʻli bilan amalga oshiriladi. Olingan natijalar til tizimida VATAN tushunchasini gavdalantiruvchi soʻzlarning soʻz yasalishi, paradigmatic va sintagmatic aloqalari hamda munosabatlarining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish orqali aniqlanadi va ehtimol, boyitiladi. Shuningdek, tarkibida tushunchaning vakillari yoki uning gʻoyaviy mazmuniga maʼno jihatidan yaqin boʻlgan soʻzlarni oʻz ichiga olgan frazeologizmlar va maqollar mazmunini tadqiq etish bilan toʻldiriladi. Natijalar asosida VATAN tushunchasining umumiy semantik mazmuni va maʼno hajmi modellanadi, uning tuzilishi shakllantiriladi va grafik tarzda aks ettiriladi.

Tahlilning *uchinchi bosqichi* VATAN tushunchasining semantik mazmunini ifodalovchi soʻzlarning nutqiy yoki matniy (diskursiv) qoʻllanilishini oʻrganishdan iborat. Bu jarayonda, ayniqsa, nostandart va gʻayrioddiy kontekstlarda soʻz birikmalarining kengayishi va natijada tushuncha mazmunining boyishi kuzatiladi. Shuningdek, bu bosqichda VATAN tushunchasini ifodalovchi soʻzlarning leksik-semantik va soʻz yasalishi darajasidagi yangi qoʻllanish shakllari tahlil qilinadi. Natijada, tahlilning oldingi bosqichlarida aniqlangan VATAN tushunchasining kognitiv belgilari tekshiriladi, ularning rus tili soʻzlashuvchilari nutq amaliyotidagi haqiqiyliги tasdiqlanadi va, ehtimol, zamonaviy milliy tushunchalar tizimida ularning oʻziga xos jihatlari aniqlanadi.

Tadqiqotning *toʻrtinchi bosqichida* VATAN tushunchasining keng qamrovli lingvomadaniy tahlili natijalari institutsional nutq turlarini farqlashda ushbu tushunchaning oʻrnini oʻrganish uchun qoʻllaniladi.

Dissertatsiyaning **“Olamning rus lisoniy manzarasida Vatan konsepti”** deb nomlangan ikkinchi bobida rus madaniy makonida Vatan tasavvurining ekstralingvistik mazmuni tahlil qilingan, rus tilidagi Vatan konseptini oʻzida mujassam etgan soʻzlarning etimologiyasi va tarixi yoritilgan, asosiy rus izohli lugʻatlari, rus tilining frazeologik va paremiologik fondiga muvofiq uning kognitiv xususiyatlari koʻrib chiqilgan hamda derivation, paradigmatic va sintagmatic izohlanishi tavsiflagan.

Birinchi navbatda biz Vatan haqidagi tasavvurlarning ekstralingvistik mazmunini oʻrganishni amalga oshirdik, ular rus folklorida “xalq nutqi va tafakkurining” aksi sifatida nufuzli madaniy matnlarda - badiiy, diniy, ilmiy, publitsistik, ensiklopedik va mafkuraviy lugʻatlarda mujassamlangan.

Turli madaniyatlarda va tarixiy davrlarda Vatan tushunchasi evolyutsiyasini S.N.Artanovskiy “Vatan madaniy-tarixiy hodisa sifatida” asarida tadqiq etadi. Faylasuf Vatanning uch jihatini taʼkidlaydi: uning inson uchun obyektiv mavjudligi, “tabiiy”ligi va “madaniy”ligi (Vatan insonning hayotiy tajribasida madaniy hodisa sifatida idrok etiladi va oʻzlashtiriladi).

Ye.Postnikovaning A.Proxanov va D.Bikov o'rtasidagi bahs-munozarada "Ona Vatan" arxetipini o'rganishga bag'ishlangan ishida zamonaviy siyosiy diskursda Vatan masalasining bugungi holati tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot zamonaviy Rossiyaning qarama-qarshi siyosiy diskurslarida "Ona Vatan" arxetipining turlicha talqinlariga e'tibor qaratadi.

Vatan haqidagi tasavvurlarning ko'p asrlik evolyutsiyasining ekstralingvistik mazmuni Yu.S.Stepanovning mashhur "Konstantalar. Rus madaniyati lug'ati"da umumlashtirilgan. Bu lug'at o'z turiga ko'ra shartli ravishda ideografik lug'at, ya'ni so'zlar emas, balki g'oyalar va ma'nolar talqin qilinadigan lug'at deb hisoblanishi mumkin. Ta'kidlash joizki, Yu.S.Stepanov lug'atida aniqlangan tushuncha belgilari u yoki bu tarzda ilgari ajratib ko'rsatilgan "Vatan" tushunchasining belgilariga mos keladi.

Shunday qilib, rus madaniyatida Vatan haqidagi tasavvurlarning ekstralingvistik mazmunini tahlil etish natijasida, rus madaniy makonida "Vatan" tushunchasining 17 ta muhim belgisini aniqlash imkoniyati yaratildi: (1) Tug'ilgan mamlakati, davlati; (2) yashash hududi (= ona yer); (3) ona tabiat; (4) ona tili; (5) ona madaniyat; (6) Vatan adabiyoti, qadrdon san'at; (7) Vatan tarixi; (8) Qadrdon an'analar, urf-odatlar, turmush va axloqning xususiyatlari; (9) Bu hududda yashovchi xalq (= mahalliy xalq); (10) Ona yurtida yashovchi xalq mentaliteti; (11) milliy xususiyat; (12) milliy e'tiqod, din; (13) Eng yuqori qiymat; (14) Vatanga muhabbat hissi (= vatanparvarlik); (15) Inson tug'ilgan joyi; (16) Biror narsa paydo bo'lgan joy; (17) Biror narsa kashf qilingan yoki ixtiro qilingan joy.

Keyingi bosqichda rus tilining etimologik, tarixiy va izohli lug'atlaridan olingan ma'lumotlar tahlil qilingan. Natijada 6 ta kognitiv alomatlar topilgan. Kontseptning ekstralingvistik mazmunini o'rganish jarayonida topilgan 17 kognitiv xususiyatga topilgan 6 kognitiv xususiyatni mantiqiy joylashtirish natijasida ikkita yangi kognitiv alomat aniqlandi: KA (18) "Birovning, biror narsaning kelib chiqishi, o'sishi, kelib chiqishi" va KA (19) "Oila". Shu tariqa, Vatan konseptining semantik hajmi tadqiqotning ushbu bosqichida 19 kognitiv alomatni tashkil etdi.

Keyingi bosqichda rus frazeologiyasi va paremiologiyasida Vatan konseptining ifodalanish yo'llari ko'rib chiqilgan. Frazeologik materialni tahlil qilish Vatan konseptining ilgari kashf etilgan kognitiv alomatlarini oydinlashtirish va yangi kognitiv alomatlarni aniqlash imkonini berdi: (20) "Ona", (21) "Ota", (22) "Qadrdon uy", (23) "Odamning avval yashagan, ota-onasi yashagan joy", (24) "Birovga boshpana bergan joy va uyga aylandi", (25) "Vatan sog'inchi" (jami 6 ta yangi kognitiv alomat). Jami frazeologik ma'lumotlarni hisobga olgan holda Vatan tushunchasining umumiy semantik hajmi 25 kognitiv alomatlarni tashkil etdi.

Maqol va matallarni tahlil qilish yangi kognitiv alomatlarni ochib bermadi, lekin u bir qator kognitiv alomatlarining baholash imkoniyatlarini aniqlashga yordam berdi. Шундай қилиб, мақоллардаги кучли ижобий баҳланишини (1) Tug'ilgan mamlakati, davlati; (2) yashash joyi (= vatan); (3) *metonim*. Mahalliy tabiat; (4) *metonim*. Ona tili; (8) *metonim*. Onalik an'analari, urf-odatlar, turmush va axloqning o'ziga xos xususiyatlari; (9) *metonim*. Bu hududda yashovchi odamlar (= mahalliy xalq); (10) *metonim*. O'z ona yurtida yashovchi odamlarning mentaliteti;

(11) *metonim*. Milliy xarakter; (12) *metonim*. Mahalliy e'tiqod (= ajdodlar e'tiqodi), din; (13) taxmin qilingan. Eng yuqori qiymat; (14) *metonim*. Vatanga muhabbat tuyg'usi (= vatanparvarlik); (15) *metonim*. toraygan Shaxsning tug'ilgan joyi; (19) *metaf*. Oila; (20) *metaf*. Ona; (21) *metaf*. ota; (22) *metaf*. ona uyi; (23) *metonim*. «Inson ilgari yashagan, ota-onasi yashagan joy», (24) *metaf*. 'Birovga bergan joy uyga aylangan boshpana kabi KAlar kasb etadi. KA (25) *metonimi*, o'z navbatida, salbiy baho oladi. Vatan sog'inchi.

Olamning rus tilidagi manzarasida Vatan kontseptining har tomonlama lingvomadaniy tavsifi amalga oshiri keyingi bosqichida so'z yasaliş xususiyatlari, rus tilida ushbu tushunchani o'zida mujassam etgan so'zlar o'rtasidagi paradigmatic va sintagmatic aloqalar va munosabatlar yoritilgan.

Vatan kontseptining derivativ talqini tahlili yangi kognitiv xususiyatlarni ochib bermadi, balki (3) *metonim*. 'Ona tabiat', (9) *metonim*. 'Bu hududda yashovchi xalq (= mahalliy xalq)', (16) *metaf*. 'Biror narsaning paydo bo'lgan joyi, kelib chiqishi', (18) *metaf*. "Birovning, biror narsaning kelib chiqishi, o'sishi, kelib chiqishi", (19) *metaf*. 'Oila', (20) *metaf*. 'Ona' va (21) *metaf*. ota. kabi kognitiv xususiyatlarning semantik ishlab chiqilishi, madaniy va qadriyat ahamiyatini tasdiqlash imkonini berdi.


Vatan kontseptining paradigmatic izohlanishi tahlili shuningdek, yangi kognitiv alomatlarni aniqlamadi, lekin *Vatan* va *Diyor* sinonimlari o'rtasida kontseptual yaqinlik yoki divergensiyaning ichki qarama-qarshi semantik munosabatlari mavjudligini isbotladi, bu esa Vatan kontseptining kontseptual tashkil etilishining murakkabligi va semantik boyligini yana bir bor tasdiqlash imkonini berdi.

Konseptual metafora modeli bo'yicha *Vatan* leksemasining kengaytirilgan moslashuv kontekstlari sohasida Vatan kontseptining sintagmatic izohlanishining tahlili jonsiz mavjudotni ruhlantirish jarayoni natijasida kontseptning boshqa, kontseptual-metaforik kognitiv xususiyatini aniqlashga ko'maklashdi: KA (26): *kon.-metaf*. 'Jonli mavjudot, g'ayritabiiy yoki inson zoti'. Shu tariqa, Vatan kontseptining yakuniy semantik hajmi 26 kognitiv alomatlarni tashkil etdi (1-rasm).

Dissertatsiyaning "**Vatan kontsepti diskursiv jihatda**" deb nomlangan uchinchi bobida Vatan kontseptining semantik to'ldirilishining verbal aspektini tashkil etuvchi so'zlarning nutqiy yoki matn (diskursiv) voqelanishi, shu jumladan, nostandart, noan'anaviy kontekstlarda o'rganilishi, shuningdek, kontsept reprezentantlari bo'lgan so'zlarning leksik-semantik va so'z yasalişi sathidagi faoliyatidagi yangi hodisalar ko'rib chiqilgan. Keyinchalik olingan ma'lumotlar «Vatan» kontseptining institutsional diskurs turlari – pedagogik, siyosiy, harbiy va ommaviy axborot turlarini farqlashdagi rolini tadqiq qilishda qo'llaniladi. So'zlarning nutqiy voqelanish xususiyatlari va Vatan kontseptini o'zida mujassam etgan so'zlarning qo'llanishidagi yangi hodisalar o'rganildi.

Rus tili milliy korpusidan til ma'lumotlarini tahlil qilish kontseptsiyani har tomonlama tavsiflashning oldingi bosqichlarida qayd etilgan Vatan kontseptining 26 ta kognitiv alomatlarining haqiqiylikini isbotlash imkonini berdi.

Zamonaviy rus nutqida Vatan kontseptini ob'ektivlashtiruvchi so'zlarning nutqda yangi hodisalarni ko'rib chiqish lug'atlarda qayd etilmagan ma'noning sezilarli o'sishini aniqladi.



1-rasm. Vatan kontseptining semantic tuzilishi<sup>10</sup>

Leksik-semantik darajadagi yangi hodisalardagi semantik o'zgarishlar zamonaviy rus nutqida Vatan kontseptini o'zida mujassam etgan so'zlarning uyg'unligining kengayishi bilan bog'liqligi ko'rsatilgan. Nostandart atributiv muvofiqlik modellari Vatan haqidagi tasavvurni boyituvchi semantik sig'imli metaforik ma'nolarni ifodalaydi. *Vatan* so'zining sifatli sifatdoshlari bilan birikmalarida ko'p hollarda tiriltirish modeli, *Vatan* otining timsoli amalga oshiriladi. Ushbu kontekstlarda tegishli kontseptsiyaning ijobiy-baholovchi (*aziz vatan*) va salbiy-baholovchi (*shafqatsiz, qattiqqo'l, noqulay, o'g'rinamo vatan*) baholash salohiyati faol rivojlanadi.

Shuningdek, Vatan so'zining nostandart genitiv muvofiqligi kontekstlari ham tahlil qilindi, ular, odatda, genitiv metafora modeli asosida quriladi. Tahlil ushbu kontseptning metaforizatsiya qilishning asosiy turlarini aniqladi: antropomorfik metaforalar, tabiat metaforalari, hissiy idrok metaforalari, parametrik metaforalar.

<sup>10</sup> Ushbu kognitiv belgilarning verballashuvi dissertatsiya matnida ko'rsatilgan

Ijobiy (*vatan mo'jizalari, jozibadorligi, go'zalligi*) va salbiy (*vatanning iflosligi, umidsizligi, qashshoqligi*) baholash kontekstlari ham aniqlanadi.

Umuman olganda, Vatan kontseptini leksik darajada verbalizatsiya qilishda yangi hodisalarni tadqiq etish Vatan so'zining ma'nosini sezilarli darajada boyitish va baholash salohiyatini sezilarli darajada rivojlantirishini namoyon etadi, bu esa rus tilida so'zlashuvchilarning nutq amaliyotida Vatan kontseptining madaniy ahamiyati oshganidan dalolat beradi.

So'z yasalishidagi yangi hodisalarni ko'rib chiqish ham tushunchaning baholash salohiyatining rivojlanishini ochib beradi. Ijobiy baholash, avvalam bor, sub'ektiv baholash qo'shimchalari bilan suffiksial neoplazmalar bilan bog'liq. *Rodinushka (vatanjonim)* va *rodinishka (vatanginam)* neoderivativlari o'zining ishlatilishida gapiruvchining empatiya hissini mujassamlashtiradi – nominatsiya ob'ekti – Vatanga nisbatan hissiyotli, iliq va samimiy munosabat.


Salbiy baholash, odatda, gapiruvchining nominatsiya ob'ektiga istehzoli munosabatini ifodalash bilan bog'liq. Bu prefikslar orqali prefiks hosilalarining hosil bo'lishida namoyon bo'ladi: o'lchovli-baho ma'nosida – *oliyvatan, supervatan, gipervatan*, “qarshi” ma'nosida – *aksilvatan*, yetishmaslik ma'nosida – *vatangacha, yarim vatan* va xayoliy ma'noda – *kvazi vatan, soxta vatan, yolg'on vatan*. So'zlovchilar tomonidan salbiy baholanadigan narsa umuman Vatan emas, balki qaysidir ma'noda “noto'g'ri”, o'zini “noto'g'ri” tutayotgan, qaysidir xronologik davrda yoki qaysidir jihatdan normadan, so'zlovchi nuqtai nazaridan chetga chiqqan Vatandir degan xulosaga kelindi.

Ushbu tadqiqot doirasida, jumladan **VATAN tushunchasining diskursiv jihatini tahlil qilishga** bag'ishlangan, biz VATAN tushunchasining institutsional diskurs turlarini farqlashdagi rolini o'rganishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ishning oldingi qismlarida o'tkazilgan tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, rus milliy til manzarasida hamda rus tilining milliy korpusida VATAN tushunchasi, ayniqsa, pedagogik, siyosiy, harbiy va ommaviy axborot diskurslari kabi institutsional diskurs turlarini tadqiq etish uchun eng istiqbolli hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, aynan shu diskurslarda VATAN tushunchasi nafaqat o'zining asosiy xususiyatlarini namoyon etadi, balki ko'p jihatdan ushbu diskurslarning o'ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi va shu orqali ularning bir-biridan farqlanishiga yordam beradi.

Ushbu farazni tekshirish maqsadida bevosita mazkur diskurslarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqishga va ularning parametrlarini shakllantirishda VATAN tushunchasining rolini tahlil qilishga murojaat qilamiz.

Pedagogik diskurs “o'quvchilar va o'qituvchi o'rtasidagi muloqot jarayonida yuz beradigan hamda belgilangan kontekstning aniq tartibga soluvchi qoidalari va usullari bilan boshqariladigan tizimli jarayon” sifatida ta'riflanadi [Pashkova, 2009: 260]. Ta'kidlash lozimki, ta'lim tizimi ijtimoiy institutning barcha xususiyatlariga ega bo'lib, uning doirasida asosiy subyektlar – o'qituvchilar va o'quvchilarning ijtimoiy mavqe va rollari shakllanadi. Boshqacha aytganda, ta'lim jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi muloqot erkin bo'lmay, balki rasmiy va ma'lum qoidalarga bo'ysundirilgan holda kechadi. Ushbu masalaga oid tadqiqotlarda

keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib, pedagogik diskursning asosiy xususiyatlarini quyidagi sxema ko'rinishida ifodalash mumkin (2-rasm).



**2-rasm. Pedagogik diskursning asosiy xususiyatlari**

